



UDK:327(517):355.4. UDK 94(517):355.4

Javohir SULTONOV,

Farg'ona davlat universiteti Strategik rivojlanish va xalqaro reytinglar bo'limi boshlig'i

E-mail: strategic_development@pf.fdu.uz

AQSH Seton Hall universiteti siyosiy fanlar doktori, DSc taqrizi asosida

CHINGIZXONNING HARBIIY DIPLOMATIYASI: SIYOSIY REALIZM NAZARIYASI DOIRASIDA TAHLIL

Annotatsiya

Ushbu maqola Chingizxonning harbiy yurishlarini Realpolitik nuqtayi nazaridan tahlil qiladi. Chingizxon mafkuraviy da'volardan chetlanib, harbiy harakatlarini strategik manfaatlarga yo'naltirgan. Uning Kuchlukka qarshi yurishlari bu yondashuvning yaqqol namunasi bo'lib, Chingizxon o'z harakatlarini mintaqaviy barqarorlik va legitimlik asosida asoslagan. Tarixiy manbalar va zamonaviy xalqaro munosabatlar nazariyalari asosida Chingizxonning siyosiy pragmatizmi va harbiy strategiyasi tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Chingizxon, Realpolitik, harbiy yurishlar, siyosiy pragmatizm, xalqaro munosabatlar, Kuchluk, mo'g'ullar, strategik manfaatl.

ВОЕННАЯ ДИПЛОМАТИЯ ЧИНГИСХАНА: АНАЛИЗ В РАМКАХ ТЕОРИИ ПОЛИТИЧЕСКОГО РЕАЛИЗМА

Аннотация

Данная статья анализирует военные походы Чингисхана с точки зрения концепции Realpolitik. Чингисхан избегал идеологических претензий и направлял свои военные действия на достижение стратегических интересов. Его походы против Кучлук являются ярким примером этого подхода: Чингисхан обосновывал свои действия через обеспечение региональной стабильности и легитимности. В статье проводится анализ его политического прагматизма и военной стратегии на основе исторических источников и современных теорий международных отношений.

Ключевые слова: Чингисхан, Realpolitik, военные походы, политический прагматизм, международные отношения, Кучлук, монголы, стратегические интересы.

GENGHIS KHAN'S MILITARY DIPLOMACY: AN ANALYSIS WITHIN THE FRAMEWORK OF POLITICAL REALISM THEORY

Annotation

This article analyzes Genghis Khan's military campaigns through the lens of Realpolitik. Genghis Khan avoided ideological claims and directed his military actions toward strategic interests. His campaigns against Kuchluk serve as a clear example of this approach, as he justified his actions through regional stability and legitimacy. The study examines his political pragmatism and military strategy based on historical sources and modern international relations theories.

Key words: Genghis Khan, Realpolitik, military campaigns, political pragmatism, international relations, Kuchluk, Mongols, strategic interests.

Kirish. Chingizxonning harbiy yurishlari ko'pincha uning strategik yondashuvi va Realpolitik tamoyillariga asoslangan harakatlari bilan izohlanadi. U mafkuraviy yondashuvlardan chetlanib, harbiy va siyosiy qarorlarini pragmatik manfaatlarga asoslagan holda qabul qilgan. Mo'g'ullar tomonidan Qashqar va unga yondosh hududlarni zabt etish jarayoni ushbu strategiyaning yorqin namunasi bo'lib, ular jang qilish o'rni psixologik bosim va siyosiy muvozanatni o'z foydasiga yo'naltirishga intilgan. Ushbu maqola Chingizxonning harbiy yurishlarini Realpolitik doirasida tahlil qilib, uning muvaffaqiyatini harbiy strategiya va siyosiy pragmatizm kontekstida baholaydi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Chingizxonning harbiy yurishlarini Realpolitik doirasida tahlil qilish uchun tarixiy manbalar va zamonaviy tadqiqotlar muhim ahamiyat kasb etadi. Ibn al-Asir, Juvayniy va Juzjoni kabi o'rta asr tarixchilari mo'g'ullarning harbiy yurishlarini keng yoritib, ularning harbiy taktikasi va siyosiy strategiyasini aks ettirgan. Ushbu manbalarda Chingizxonning harbiy yurishlari dushmani bo'ysundirish, mahalliy elitalarni integratsiya qilish va ma'muriy boshqaruvni ta'minlash strategiyalari bilan izohlanadi.

Zamonaviy tadqiqotlardan Morgenthau va Waltzning xalqaro munosabatlar nazariyalari Chingizxon siyosatini Realpolitik nuqtayi nazaridan baholashga imkon beradi. Morgenthau kuch va manfaatlar ustuvorligini ta'kidlagan bo'lsa, Waltzning neorealistik tahlili mo'g'ullar yurishlarini xalqaro tizimdagi kuch muvozanati kontekstida ko'rib chiqishga yordam beradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqot tarixiy manbalar, zamonaviy tadqiqotlar va harbiy-strategik yondashuvlar asosida olib borildi. Tadqiqotda taqqoslash va tarixiy

rekonstruksiya usullari qo'llanilib, Chingizxonning harbiy yurishlari bilan boshqa tarixiy shaxslarning harbiy strategiyalari o'rtasidagi o'xshashlik va farqlar tahlil qilinadi.

Tahlil va natijalar. Xalqaro munosabatlar nazariyasining asoslaridan biri bo'lgan siyosiy realizm davlatlarning xalqaro tizimdagi motivlari va harakatlarini tushunish uchun mustahkam nazariy asos yaratadi. Inson tabiati qanday bo'lsa, shundayligicha o'rganish va tarixiy jarayonlarni ular aslida qanday sodir bo'lsa, shunday tahlil qilishga asoslangan ushbu nazariy yondashuv "realizm" nomini olgan[1].

Hans Morgentau, realizm maktabining yetakchi nazariyotchilaridan biri, o'zining Politics Among Nations: The Struggle for Power and Peace (1948) asarida siyosiy realizmning asosiy tamoyillarini bayon qilgan. Unga ko'ra, xalqaro tizimda davlatlar oqilona aktorlar sifatida harakat qiladi va ularning asosiy motivi milliy manfaatlarini ta'minlashdan iborat. Morgentau bu manfaatlarni "qudrat bilan belgilangan milliy manfaatlar" (national interest defined in terms of power) tushunchasi orqali izohlaydi[2].

Ushbu manfaatlar xavfsizlik, ichki barqarorlik va iqtisodiy farovonlikni o'z ichiga oladi[1]. Milliy manfaatlarni amalga oshirish jarayonida davlatlar xalqaro tizimning anarxik tabiati tufayli kuchdan foydalanishga va hokimiyatni oshirishga majbur bo'ladi. Ushbu tamoyil Chingizxonning siyosiy strategiyasida yaqqol namoyon bo'lib, uning harakatlari realizm nazariyasining asosiy tushunchalari bilan to'liq mos keladi.

Yuqoridagi fikrni isboti sifatida Chingizxon va Jamuqaning ittifoqi axloqiy do'stlik emas, balki manfaatlarga asoslangan strategik harakat edi. Qo'qonoq o'rmonida qarorgoh barpo etib, ular birodarlik qasamyodini yangiladilar. Chingizxon

uchun bu hamkorlik, bir tomondan, Merkit kabi qabilalarning tahdididan himoyalaniش vositasi bo'lsa, ikkinchi tomondan, Jamuqaning nufuzi orqali o'z ta'sir doirasini kengaytirish imkonini bergan.

Biroq, Chingizxon o'z kuchini oshirgach, Jamuqa bilan teng huquqli ittifoq tuzish niyatiga o'tdi. Har qanday siyosiy uyushmada yetakchilik uchun kurash muqarrar, va bu holat Chingizxon hamda Jamuqa o'rtasidagi ziddiyatlarni keltirib chiqardi. Chingizxon markazlashgan va meritokratik boshqaruvni yoqlagan bo'lsa, Jamuqa an'anaviy aristokratik tuzum tarafdori edi. Bu qarama-qarshilik oxir-oqibat ularning ajralishiga olib keldi. Tayichi'udlarning Jamuqa bilan ittifoq tuzishi Chingizxonni mustaqil harakat qilishga undadi. 1186-yilda u Mo'g'ul qabilasining xoni deb e'lon qililib, siyosiy obro'sini mustahkamladi[3].

Siyosiy realizm nuqtayi nazaridan, ularning munosabatlari shaxsiy sadoqat emas, balki kuch muvozanati va manfaatlar asosida shakllangan edi. Bu fikrni Maks Veber quyidagicha ifodalagan: "Inson harakatlarini bevosita manfaatlar (moddiy va ma'naviy) boshqaradi, g'oyalar emas. Biroq, aynan shu g'oyalarning yaratgan dunyo tasvirlari ko'pincha manfaatlar dinamikasini yo'naltiruvchi relslar vazifasini bajargan[2]." Chingizxon ham o'z siyosiy strategiyasini aynan shu tamoyillar asosida qurdi va do'stlikdan ko'ra, kuch va pragmatik manfaatlarini ustuvor qo'ydi.

Shuningdek, Morgentau realizmning asosiy tamoyillaridan birini shunday izohlaydi: "Davlatlarning xalqaro tizimdagi asosiy maqsadi omon qolishdir, bu esa milliy manfaatlarini himoya qilish orqali amalga oshiriladi"[1].

Mazkur prinsipning amaliy ifodasi sifatida Chingizxonning Nayman va Merkit qabilalariga qarshi harbiy yurishlarini ko'rish mumkin. Ushbu harakatlar nafaqat raqib kuchlarning yo'q qilinishiga, balki mo'g'ul qabilalarining siyosiy konsolidatsiyasiga ham xizmat qilgan. Chingizxon harbiy ustunlikka erishish orqali ichki nizolarni bartaraf etib, mo'g'ullarning xavfsizligini mustahkamlashga va ularni yagona siyosiy tuzilma ostida birlashtirishga muvaffaq bo'lgan[4].

Chingizxonning Osiyo va Yevropa bo'ylab amalga oshirgan istilolari realizm nazariyasining yana bir muhim tamoyiliga, ya'ni hududiy kengayish orqali barqarorlikni ta'minlashga mos keladi. Ushbu kengayish tashqi tahdidlarni kamaytirish, iqtisodiy resurslarni ko'paytirish va xalqaro tizimdagi siyosiy nufuzni oshirishga qaratilgan edi. Kennet Waltz realizmning ushbu tamoyilini shunday ifodalaydi: "Kuchni kengaytirish va nazoratni ta'minlash xavfsizlik va barqarorlikni mustahkamlash uchun muhim vositadir"[5].

Chingizxonning Markaziy Osiyo va Xitoy hududlarini zabt etishi savdo yo'llarini nazorat qilish, iqtisodiy tizimni isloh etish va xalqaro iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish orqali Mo'g'ul imperiyasining qudratini mustahkamlashga erishdi.

Barfieldning fikriga ko'ra, Chingizxonning "Tashqi chegara strategiyasi" ko'chmanchi davlatlarning asosiy zaifligini bartaraf etish uchun ishlab chiqilgan edi. Bu zaiflik shundan iborat ediki, keng va nisbatan bir xil chorvachilik iqtisodiyoti resurslari bilan davlat tuzilishini saqlab qolish va hayot kechirish qiyin edi. Xitoy esa an'anaviy ravishda bunday davlatlar uchun qishloq xo'jaligi va sanoat mahsulotlarining asosiy manbasi bo'lib kelgan[6].

Shuningdek, Jin sulolasi chegaradagi savdo bozorlarida muayyan mahsulotlar savdosini cheklab, dasht aholisi uchun temir buyumlar va qurollar eksportini taqiqlagan edi. Natijada, Markaziy Osiyo savdogarlari mo'g'ul ko'chmanchilariga zarur bo'lgan mahsulotlar, jumladan, kiyim-kechak kabi kundalik ehtiyoj buyumlarini yetkazib berish orqali ushbu bo'shliqni to'ldirishgan[7].

Savdo tovarlarining Markaziy Osiyodan Mo'g'ul dashtlariga oqib kelishi ko'chmanchilarning kundalik hayoti uchun nihoyatda muhim bo'lgan. Hatto vaqtincha savdo uzilishi ham dasht aholisi uchun jiddiy mahsulot tanqisligiga sabab bo'lishi mumkin edi. Chingizxonning harbiy yurishlari va diplomatik siyosati aynan ushbu savdo yo'llarining xavfsizligi va samarali ishlashini ta'minlashga qaratilgan edi. Biroq Xorazmshohlar sulolasi Qoraxitoylar ustidan g'alaba qozonib,

Movarounnahr ustidan nazoratni qo'lga kiritgach, mintaqadagi asosiy savdo yo'llari harakatiga cheklovlar kiritildi.

Natijada, Xorazmshoh va mo'g'ullar o'rtasidagi siyosiy va harbiy ziddiyatlar kuchayib, mintaqaning ichki iqtisodiy barqarorligiga jiddiy tahdid solindi. Ibn al-Athir o'z asarlarida Xorazmshohning Qora Xitoylardan Movarounnahrni zabt etishi natijasida Markaziy Osiyoda savdo yo'llari uzilib, Mo'g'ulistonda kiyim-kechak tanqisligi yuzaga kelganini qayd etadi. Bu voqea mo'g'ullar va Xorazmshoh o'rtasidagi ziddiyatlarni kuchaytirib, mintaqadagi siyosiy va iqtisodiy muvozanatga salbiy ta'sir ko'rsatgan edi[8].

Mo'g'ullarning Islom olamiga bostirib kirishi faqat Xorazmshohlarning siyosiy harakatlari bilan izohlash noto'g'ri bo'lardi. Mo'g'ullar yurishining aniq omillari haqida tarixiy manbalarda to'liq ma'lumot berilmagan.

Shuningdek, Chingizxon iqtisodiy farovonlikka erishish uchun diplomatik vositalardan unumli foydalangan. Qo'shni davlatlar bilan savdo kelishuvlarini tuzish orqali xalqaro iqtisodiy aloqalarni mustahkamlab, savdogarlar uchun keng imkoniyatlar yaratdi. Lane bu borada shunday deb yozadi: "Diplomatik vositalar iqtisodiy siyosatni mustahkamlash va xalqaro savdo aloqalarini rivojlantirish uchun muhim vositadir"[9]. Savdogarlar uchun yaratilgan qulay shart-sharoitlar Mo'g'ul imperiyasining iqtisodiy va siyosiy kuchini mustahkamlashda muhim rol o'ynadi. Bazi bir musulmon savdogarlar Chingizxon davlatni tashkil topishida misol uchun Ja'far Xo'janing diplomatik faoliyati xalqaro munosabatlar tarixida Mo'g'ullar imperiyasi va Jin davlati o'rtasidagi siyosiy aloqalar kontekstida muhim ahamiyat kasb etadi. U o'zining diplomatik qobiliyatlari, Jin davlati haqidagi chuqur bilimi va ko'p tilli muhitda erkin faoliyat yuritish salohiyati bilan Chingizxonning axborot tizimida alohida mavqega ega bo'ldi[10]. Ja'far Xo'ja turli manbalarda "elchi" (xitoycha yilizhi, forscha ilchi, mongolcha elchi) sifatida tilga olinib, ushbu unvon musulmon yozma manbalarida ham qayd etilgan[11].

Chingizxonning harbiy yurishlari uning Realpolitik tamoyillariga asoslangan pragmatik va strategik yondashuvini aks ettiradi. U mafkuraviy motivlardan chetlanib, harbiy operatsiyalarini aniq siyosiy va harbiy maqsadlarga yo'naltirgan. Bu yondashuvni uning Kuchluk hukmronligiga qarshi olib borgan harakatlarida ham kuzatish mumkin.

Mo'g'ullar egallagan hududlarda diniy erkinlik e'lon qilinishi mintaqa aholisi orasida ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan siyosatning bir qismi edi. Chingizxon hayoti davomida shamanistik e'tiqodiga sodiq qolgan bo'lsa-da, u turli din vakillari bilan muloqot orqali dunyoqarashini kengaytirgan. Uning shaxsiy e'tiqodi va diniy siyosati jamiyat ichidagi ijtimoiy munosabatlar va xalqaro aloqalar doirasida shakllangan. Mo'g'ullar an'anaviy shamanistik e'tiqodga ega bo'lishlariga qaramay, bu din boshqa e'tiqodlarga dushmanlik qilmasdi. Shu sababli, Chingizxon har bir dinning o'z ta'sir doirasi borligini tushungan va ularning g'azabini qo'zg'atmaslikka harakat qilgan. U diniy bag'rikenglikni shaxsiy e'tiqodidan emas, balki jamiyat barqarorligini ta'minlashning strategik vositasi sifatida ilgari surgan.

Davlat arbobi sifatida Chingizxon diniy urushlar ichki tinchlik uchun xavfli ekanini tushungan, bosib olingan hududlarda esa diniy erkinlikni e'lon qilish mahalliy aholini o'z tomoniga og'dirishning samarali usuli ekanini anglagan. Shu sababli u barcha dinlarga hurmat bilan munosabatda bo'lishni buyurgan va hech bir dinga ustunlik bermagan. Al-Umarining qayd etishicha, Chingizxon hech bir din boshqa dinga qarshi majburan targ'ib qilinmasligi kerakligini ta'kidlagan[4]. Uning bu siyosati amalda o'z samarasini bergan: masalan, musulmon aholisi ko'pchilikni tashkil qilgan Xo'tanda mo'g'ullar ozodlik beruvchilar sifatida kutib olingan[12]. Chingizxonning diniy erkinlik haqidagi farmoni esa Xorazmshohga qarshi muqaddas urush boshlanishining oldini olgan. Gruziyada esa mo'g'ullarni xristianlar deb hisoblashgan va ularga ruhoniyar tomonidan tantanali qabul uyushtirilgan[13]. Chingizxon turli dinlarning vakillari bilan uchrashgan bo'lsa-da, ularning aqidaviy ta'limotlariga unchalik qiziqmagan. Biroq, Chingizxon begona dinlarning aqidalariga befarq bo'lmagan, ayniqsa ular mo'g'ul urf-odatlariga zid kelganida. Masalan, musulmonlarning mo'g'ulcha usulda so'yilgan go'shtni iste'mol

qilishdan bosh tortishi uning diqqatini tortgan va u hayvon so'yish qoidalariga oid maxsus qonunlar joriy qilgan. Xuddi shuningdek, u va uning vorislari chet elliklarning diniy sabablari bilan qarindoshlar bilan nikohdan voz kechishiga yoki islomiy marosimlarga ko'ra oqib turgan suvda tahorat olishiga yo'l qo'ymagan[13]. U dashtdagi hukmronlik uchun kurash chog'ida shamonlardan foydalangan bo'lsa, bosib olingan hududlarni tinchlantirishda ruhoniylarning xalq orasidagi ta'siridan unumli foydalangan. U Changchunga yozgan maktubida shunday degan: "Oddiy xalqni mening tarafimga og'dirdingmi?"[14]"

Chingizxon xorijiy din yetakchi vakillariga soliq imtiyozlari va daxlsizlik hujjatlarini taqdim etib, ularni "darkhan" maqomiga ko'targan[15].

Konstruktivizm nuqtayi nazaridan, Chingizxonning diniy siyosati uning shaxsiy e'tiqodidan emas, balki siyosiy ehtiyojlardan kelib chiqqan. U dini ijtimoiy tartibni shakllantirish va legitimatsiya vositasi sifatida ishlatgan. Shu bilan birga, realizm tamoyillari uning diniy bag'rikengligi pragmatik sabablarga asoslanganini ko'rsatadi. Diniy yetakchilar bilan aloqalar nafaqat ichki barqarorlikni ta'minlash, balki tashqi dushmanlarga qarshi koalitsiyalar tuzishda ham muhim rol o'ynagan.

Morgenthau ta'kidlaganidek, "Harbiy kuch siyosiy maqsadlarga erishishning asosiy vositasi bo'lib, bu vosita faqat pragmatik maqsadlarga qaratilgan bo'lishi kerak" (Morgenthau, 1948, p. 11). Chingizxonning harbiy strategiyalari milliy xavfsizlikni oshirish va imperiyaning kuchini ta'minlashga xizmat qilgan.

Chingizxon faqat harbiy vositalar bilan cheklanib qolmasdan, diplomatik strategiyalarni ham pragmatik asosda amalga oshirdi. U qabilalar va qo'shni davlatlar bilan strategik ittifoqlar tuzib, milliy manfaatlariga xizmat qiluvchi kelishuvlarga erishdi. Bu tamoyil Realpolitikning yana bir muhim jihatini aks ettiradi: "Diplomatiya pragmatizmning asosiy ifodasi bo'lib, davlatlar o'z manfaatlarini himoya qilish uchun ularni harbiy vositalar bilan birlashtirishi zarur bo'ladi"[5].

Qo'rqitish strategiyasi Chingizxonning siyosiy realizm tamoyillariga asoslangan yondashuvi bo'lib, u harbiy kuchning nafaqat jismoniy, balki psixologik ta'sirini ham inobatga olgan. Bu yondashuvni Xorazmshohlar davlatidagi shaharlarni egallash jarayonida ham kuzatish mumkin[16], chunki Chingizxon psixologik urush usullarini faol qo'llagan. Waltzning ta'kidlashicha, "Qo'rqitish vositalari dushmanlarning qarorlariga ta'sir qilish va ularni tiyib turishda hal qiluvchi rol o'ynaydi"[5]. Chingizxonning harbiy yurishlari va shiddatli hujumlari orqali yaratilgan doimiy qo'rquv dushmanlarni jismoniy kuch ishlatmasdan bo'ysunishga undadi. Psixologik ta'sir Chingizxonning qo'rqitish strategiyasining asosiy elementi edi. Harbiy yurishlarning tezligi va halokatli natijalari dushman davlatlarni imperiyaga qarshi chiqishdan tiyib turdi. Morgenthau bu haqda shunday yozadi: "Kuch faqat harakat emas, balki uning qo'llanishi haqidagi xavotir ham siyosiy vosita sifatida ishlaydi"[1]. Chingizxon o'z hokimiyatini saqlab qolish va imperiya barqarorligini ta'minlash uchun doimiy ravishda harbiy kuchning psixologik va diplomatik ta'siridan foydalanib, dushmanlarni tiyib turdi. Ushbu yondashuv nafaqat ichki, balki xalqaro darajadagi barqarorlikni mustahkamladi.

Chingizxonning siyosiy faoliyatida kuchlar muvozanatini saqlash tamoyili asosiy o'rinni egallagan bo'lib, u ichki nizolarni yo'q qilish, tashqi dushmanlarni zararsizlantirish va ittifoqlar shakllantirish orqali Mo'g'ul imperiyasining barqarorligini ta'minlagan.

Chingizxonning tashqi siyosati kuchlar muvozanatini xalqaro darajada ta'minlashga qaratilgan edi. Markaziy Osiyo, Xitoy va Fors mintaqalariga qilingan istilolar orqali u qo'shni davlatlarning harbiy va iqtisodiy qudratini zaiflashtirib, o'z imperiyasining xavfsizligini ta'minladi.

Chingizxon kuchlar muvozanatini saqlash va harbiy ustunlikni ta'minlash maqsadida strategik ittifoqlarni shakllantirishni ustuvor vazifa sifatida belgilagan. Morgenthau ta'kidlaganidek, "Ittifoqlar kuchlar muvozanatini ta'minlashda davlatlarning asosiy vositasi hisoblanadi"[1]. Bunga misol sifatida biz Chingizxonning Uyg'ur va Qoraxitoy qabilalari bilan tuzgan ittifoqdir.

Bu strategiyaning yorqin namunasini Xorazm yurishi arafasida kuzatish mumkin. Mazkur harbiy harakatlar oldidan Chingizxonga Qayaliq hukmdori Qarluq Arslon, Almoliqning yangi hukmdori Suqnoq-Tegin va Uyg'ur hukmdori Idiqt Barchuq o'z qo'shinlari bilan qo'shilgan. Natijada, o'n ming uyg'ur, olti ming qarluq va Almoliqdan kelgan askarlar safarbar etilgan yirik harbiy kuchni tashkil etgan[17]. Shuningdek, Chingizxon Xorazm davlatiga qilgan yurishlarida bu hududlar va ularning hukmronlarini o'rni katta bo'ldi. Xorazm yurishi davrida Chingizxon Quyliqa Chig'atoyi og'ir yuklarni o'tkazishga mo'jalangan 48 ta ko'priq qurish uchun jo'natadi. Chig'atoy qal'a qamali uchun ishlatiladigan qurol aslahalarni o'tkazadigan ikki arava ham yonma-yon birga harakat qila oladigan ko'priklarni talab darajasida qurib bitkazadi[18].

Chingizxonning muvaffaqiyati nafaqat harbiy qudrat va realpolitik tamoyillariga, balki ma'naviy qadriyatlar, ideologik konstruksiyalar va ijtimoiy identifikatsiyaga asoslangan siyosiy legitimlikka ham tayanadi. Shu sababli, Chingizxonning faoliyatini tahlil qilishda konstruktivizm nazariyasiga ham murojaat qilish ilmiy jihatdan zarur hisoblanadi.

Xulosa. Chingizxonning harbiy diplomatiyasi siyosiy realizm tamoyillariga to'liq mos keladi. U kuch muvozanatini saqlash, milliy manfaatlarini himoya qilish va davlat xavfsizligini ta'minlash yo'lida pragmatik yondashuvni qo'llagan. Uning harbiy yurishlari faqat ekspansionistik maqsadlarga emas, balki ichki barqarorlik va tashqi tahdidlarga javob sifatida shakllangan. Chingizxon diplomatik aloqalarni faqat harbiy kuch bilan emas, balki strategik ittifoqlar va manfaatlariga asoslangan kelishuvlar orqali ham boshqargan.

Siyosiy realizm doirasida tahlil qilinganda, Chingizxonning davlat boshqaruvi va harbiy yurishlari realizmning asosiy tushunchalari – kuch, manfaat va xavfsizlik tamoyillariga asoslanganligini ko'rish mumkin. U faqatgina harbiy muvaffaqiyatlarga emas, balki uzoq muddatli davlat barqarorligini ta'minlashga ham intilgan. Shu sababli, uning harbiy diplomatiyasi kuch orqali tartib o'rnatishning va davlat manfaatlarini himoya qilishning yorqin namunasidir. Chingizxon tajribasi shuni ko'rsatadiki, harbiy kuch va diplomatiya uyg'unligi davlatlarning xalqaro maydondagi muvaffaqiyatini ta'minlovchi muhim omillardan biridir.

ADABIYOTLAR

1. Hans J. Morgenthau, *Politics Among Nations* (1948), 3, 4, 5, 11, 13.
2. Morgenthau H. J. & K. W. Thompson, *Politics Among Nations, Brief Edition* (1993), 4, 10.
3. Onon U., *The Secret History of the Mongols* (2021), 95-97.
4. Ratchnevsky P., *Genghis Khan: His Conquests, His Empire, His Legacy* (1991), 52-57, 197, 198.
5. Waltz K. N., *Theory of International Politics* (1979), 112, 115.
6. Barfield R., *The Perilous Frontier* (1989), 198.
7. Biran M., *The Empire of the Qara Khitai* (2005), 138.
8. Ибн аль-Асир, *Аль-Камиль фи ат-Тарих* (2005), 346, 359.
9. Lane G., *Daily Life in the Mongol Empire* (2004), 140.
10. Al-Bat.ġ.ġ., *Ahwāl H. mulūk al-tatār* (2015), 70.
11. Jūzjānī M., *Tabaqāt-i Nasirī* (1964), 100.
12. A. Juvaini, *The History of the World-Conqueror* (1958), 67.
13. San R. Germano, *Chronica* (1934), 2.
14. Jackson P., *The Mongols and the Faith of the Conquered* (2005), 257.
15. Jagchid S., *Chinese Buddhism and Taoism during Mongol Rule* (1980), 63.

15. ан-Насавий Ш., Сират ас-Султан Джалал ад-Дин (1996), 7.
16. McLynn F., Genghis Khan: His Conquests, His Empire, His Legacy (2015), 269.
17. Ch'ang Ch'un, The Travels of an Alchemist (1931), 85.